

Fuqarolik tarbiyasi: Zamonaviy yondashuvlar va ijtimoiy ahamiyat

Zilolaxon Nizomiddin qizi Sirojiddinova

Umidaxon Yoʻldasheva

Zuhraxon Obitxanova

Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Maqolada fuqarolik tarbiyasining nazariy asoslari, tarixiy ildizlari va zamonaviy jamiyatda tutgan oʻrni har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, taʼlim tizimidagi yondashuvlar va fuqarolik ongini shakllantirishdagi muhim omillar oʻrganiladi.

Kalit soʻzlar: fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, ijtimoiy institutlar, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, shaxs kamoloti

Civic Education: Modern Approaches and Social Significance

Zilolakhon Nizomiddin kizi Sirojiddinova

Umidakhon Yoʻldasheva

Zuhrakhon Obitkhanova

Scientific Advisor: M.M. Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, historical roots, and the role of civic education in modern society. In particular, it explores the reforms being carried out in the Republic of Uzbekistan aimed at building a civil society, approaches in the education system, and key factors in shaping civic consciousness.

Keywords: civic education, civil society, legal awareness, social institutions, patriotism, social activity, personal development

Zamonaviy jamiyatda har bir fuqaroning faolligi, ongli ishtiroki, qonunlarga itoatkorligi va jamiyatdagi oʻz oʻrnini anglash darajasi bevosita fuqarolik tarbiyasiga bogʻliq. Fuqarolik tarbiyasi - bu nafaqat bilim berish, balki insonda jamiyat oldidagi masʼuliyat tuygʻusini uygʻotish, uning ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir. Oʻzbekiston Respublikasida “Yangi Oʻzbekiston” gʻoyasi doirasida

fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolik tarbiyasini tizimli asosda yo'lga qo'yish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, fuqarolarning ongli ishtiroki va mas'uliyatli pozitsiyasiga bog'liq. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekiston sharoitida fuqarolik tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Fuqarolik tarbiyasi orqali yosh avlodda Vatanga sadoqat, qonunlarga hurmat, jamoat tartibiga rioya qilish va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Fuqarolik tarbiyasi - bu shaxsda o'z Vatani, jamiyati va xalqi oldidagi burchini anglash, davlat qonunlariga hurmat bilan qarash, o'z huquq va majburiyatlarini bilish va ularga amal qilish, shuningdek, faol ijtimoiy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan tarbiya turidir. Fuqarolik tarbiyasining nazariy asoslariga to'xtalib o'tsek, fuqarolik tarbiyasi - bu tarixan shakllangan, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va siyosiy omillarni o'z ichiga olgan murakkab pedagogik-ijtimoiy jarayondir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Fuqarolik ong - shaxsning ijtimoiy hodisalarga ongli munosabati, jamiyatdagi o'rnini anglash va faol ishtirok etish istagi.

2. Fuqarolik pozitsiyasi - insonning muayyan ijtimoiy masalalarga bo'lgan mustaqil va faol qarashlari.

3. Fuqarolik mas'uliyati - fuqaroning o'z harakati, qarori va jamiyatdagi tutgan o'rniga nisbatan ijtimoiy javobgarligi.

Bu jarayonlar maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim tizimigacha bo'lgan barcha bosqichlarda muntazam va tizimli tarzda shakllantirilishi lozim.

Tarixiy kontekst: Fuqarolik tarbiyasi g'oyasining ildizlari, aytib ham fuqarolik tarbiyasining ildizlari qadimgi Sharq va G'arb falsafasiga borib taqaladi. Masalan: Avestoda jamiyat va kishilar o'rtasidagi adolat va mas'uliyat g'oyalari ilgari surilgan. Aristotel fuqaroni polis hayotida faol ishtirok etuvchi shaxs" sifatida ta'riflagan. Forobiy va Ibn Sinolar o'z asarlarida fazilatli shahar" g'oyasini ilgari surib, shaxs tarbiyasi jamiyat asosiy poydevori ekanligini ta'kidlagan. Jadidlar harakati esa 20-asr boshlarida milliy uyg'onish va fuqarolik ongini uyg'otishga harakat qilgan.

Fuqarolik tarbiyasining zamonaviy bosqichlari:

1. Oila va fuqarolik tarbiyasi

Oila - fuqarolik tarbiyasining birinchi va eng muhim bo'g'inidir. Bola o'z huquq va burchlari haqidagi ilk tasavvurlarni aynan oilada oladi. Ota-onaning namunasi, ular tomonidan beriladigan axloqiy va huquqiy saboqlar bolaning fuqarolik ongini shakllantiradi.

2. Maktab va ta'lim tizimi

Maktabda o'qitiladigan "Huquqiy bilim asoslari", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlar yosh avlodga fuqarolik va huquqiy madaniyat asoslarini o'rgatadi. Yangi o'quv

dasturlarida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, ijtimoiy faollikka o'rgatish muhim o'rin tutmoqda.

3. Fuqarolik jamiyatining institutlari

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) jamoaviy faollikni kuchaytirish va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim vosita. Mahalla institutlari O'zbekiston kontekstida fuqarolik jamiyatining tarixiy va an'anaviy shakli bo'lib, aholining o'zini o'zi boshqarish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish maktabidir.

4. Axborot vositalari va raqamli muhit

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ikki yoqlama rol o'ynaydi: bir tomondan, ijobiy axborot orqali ongni oshiradi, ikkinchi tomondan esa noto'g'ri ma'lumotlar fuqarolik pozitsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mediamadaniyatni shakllantirish ham fuqarolik tarbiyasining bir qismidir.

O'zbekistonda fuqarolik tarbiyasi sohasidagi islohotlar, yoshlar siyosati doirasida "Yoshlar ittifoqi"ning faoliyati yoshlarning fuqarolik ongini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekiston - yangi tarbiya konsepsiyasi asosida ta'lim mazmuni yangilandi, yangi darsliklar va metodikalar ishlab chiqilmoqda. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Inson - jamiyat - davlat" tamoyili fuqaroni markazga qo'ygan davlat boshqaruvi konsepsiyasidir.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik tarbiyasi - bu shunchaki bilim berish emas, balki insonda ijtimoiy ong, mas'uliyat, vatanparvarlik, qonuniylik kabi asosiy fazilatlarni shakllantirishdir. U oila, maktab, jamiyat va davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi zarur. Shu tarzda jamiyatda huquqiy ongli, mas'uliyatli, vatanparvar va faol fuqaro shakllanadi. Fuqarolik tarbiyasi har qanday jamiyat barqarorligining negizidir. U yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, o'z burch va majburiyatlarini anglashga, qonunlarga bo'ysunishga o'rgatadi. Bugungi kunda ushbu tarbiya usullarini yanada takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurdir. Zero, fuqarolik ongiga ega avlodgina Vatan kelajagini yuksak bosqichga olib chiqishga qodirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - №. 8. - С. 92-94.

2. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. - 2022. - С. 7128-7131.

3. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY. - 2020. - T. 1. - №. 1. - C. 63-65.

4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тadbirkorlikka йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.

5. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. - 2023. - Т. 5. - №. 3. - С. 15-17.

6. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тadbirkorlikka йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97-103.

7. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - №. 6. - С. 410-415.

8. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. - 2022. - №. 1. - С. 1-128.

9. Mirzakarimova M. M. et al. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 12. - С. 321-324.

10. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 11. - С. 78-83.

11. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. - 2024. - Т. 5. - №. 3. - С. 264-269.

12. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. - 2024. - Т. 5. - №. 2. - С. 224-228.

13. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim M. M. M. fanlarini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitish tizimi //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.

14. Mirzakarimova M. M. et al. O'qituvchining muomala madaniyati //Science and Education. - 2024. - Т. 5. - №. 4. - С. 278-282.

15. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAКТИK ASOSLARI //Nova. Pub. - 2022. - С. 1-128.

16. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitish tizimi //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97-103.

17. Madaminjonovna M. M. et al. ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM //Web of Teachers: Inderscience Research. - 2024. - Т. 2. - №. 5. - С. 51-55.

18. Salamat Yegeubayeva; Allanazarova Feruza Karimberdievna; Amantai Kunakbayev; Rakhimov Sherzod; Bobomurodova Munajat; Sherquziyeva Guzal Faxritdinovna; Bakhtiyor Omonov; Bobojonov Otabek Khakimboy ugli; Mirzakarimova Makhliyokhon; Khayitmuradov Anvarjon; I.B. Sapaev; Mirzayeva Mutabar Azamovna; Komilov Rustamjon Makhamadovich. "The Effect of Copper Oxide Nanoparticles on Hepatic and Renal Toxicity in Domestic Rabbits", Journal of Nanostructures, 14, 1, 2024, 150-155. doi: 10.22052/JNS.2024.01.015.

19. Умнов Д. Г., Кариев А. Д., Тешабоев А. Ю., Мирзакаримова М. М. Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников // Перспективы науки и образования. 2024. № 6 (72). С. 420-436. doi: 10.32744/pse.2024.6.26.

20. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limi tizimi. Science and Education, 4(9), 344-347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.

21. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. Science and Education, 4(10), 365-368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.

22. Uzoqjonova, M. (2024). EKOLOGIK MA'DANIYATNI YOSHLAR ONGIGA PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA SINGDIRISH. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(4), 99-100. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/72>.